

OROL FOJIASI: IQTISODIY, SIYOSIY, VA IJTIMOIIY SABABLARI.

Guliston davlat pedagogika instituti

22-25 guruh talabasi Mansurova Dilnura

Anatatsiya: Orol fojiasining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillari, paxta yakkahokimligi siyosati, suv resurslaridan noo'rin foydalanishi, orol dengizining qurishga olib kelgan asosiy sabablari, aholi hayoti va sog'lig'iga ko'rsatgan salbiy ta'siri.

Kalit so'zlar: Orol dengizi, ekologik fojia, sovet davri, iqtisodiy siyosat, paxta yakkahokimligi, siyosiy boshqaruv, ijtimoiy muammolar, Amudaryo, Sirdaryo.

Orol dengizi fojiasi dunyodagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Orol dengizi XX asrda inson qo'li bilan yuzaga keltirilgan eng yirik ekologik fojialardan biri hisoblanadi. Bir vaqtlar dunyodagi to'rtinchi o'rinda turadigan yirik ko'l bo'lgan Orol dengizi Sovetlar ya'ni sovet ittifoqi davrida olib borilgan noto'g'ri iqtisodiy va siyosiy qarorlarning oqibatida deyarli qurib ketdi. Orol fojiasi faqatgina ekologik muammo deyishimiz xato. Nafaqat Orol fojiasi ekologik muammo yana bir tomondan Markaziy Osiyo xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolardan biri. Shu sababli Orol fojiasi muammosini iqtisodiy siyosiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Orol fojiasining iqtisodiy sabablari qanday bo'ldi. Sovetlar davrida O'zbekiston bilan Markaziy Osiyo respublikalari butun Sovet ittifoqi uchun qishloq xo'jalik xomashyosi yetkazib beruvchi hudud sifatida qaraladi. Ayniqsa, bu davrida paxta yetishtirish strategik ahamiyatiga ega bo'lib, u „oq oltin“ deb e'lon qilinadi. Sovetlar davrida paxta ekin maydonlari keskin maydonlari keskin kengaytirildi. Natijasida Amudaryo va Sirdaryo suvlarining asosiy qismi sug'orishga yo'naltirildi. Reja iqtisodiyoti shariatida ekologik muvozanot hisobga olinmadi. Iqtisodiy sabablarning asosiy jihatlari suvdan samarasiz va haddan tashqari foydalanish, ekologik zararlarning iqtisodiy hisobga olinmasligi, orolni saqlab qolish uchun mablag' ajratilmaganligi.

Orol fojiasining siyosiy sabablari qanday kechdi. Bu davrda Ittifoqda markazlashgan boshqaruv tizimi hukmron bo'lib, barcha muhim qarorlar Moskva tomonidan qabul qilingan. Markaziy Osiyo respublikalari tabiiy sharoitning o'ziga xosligi e'tiborga olinmadi. Mahalliy rahbarlar reja bajarishga majbur qilindi. Orol dengizining qurishi haqida ochiq gapirish siyosiy jihatdan man etilgan. Matbuotlarda ekologik muammolar yoritilmagan, yoritilishiga yo'l qo'yilmagan, ya'ni su'niy ravishda yashirilgan. Mutaxassislar va olimlarning ogohlantirishlari e'tiborsiz qoldirilgan. Asosiy siyosiy sabablar deb quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin. Markazlashgan siyosiy boshqaruv, mahalliy manfaatlarining inkor etilishi, ekologik muammolarni yashirish siyosati mafkuraviy bosim va tanqidlarning taqiqlanishi hisoblanadi. Orol fojiasining ijtimoiy sabablari nimalardan iborat. Orolbo'yi aholisi asosan baliqchilik chorvachilik va qishloq xo'jaligi bilan shug'illangan. Dengiz qurishi natijasida baliqchilik xo'jaliklari butunlay yo'q bo'ldi. Buning natijasida minglab odamlar ishsiz qoldi. Aholining turmush darajasi keskin pasaydi. Orol bo'yidagi sho'rlangan chang bo'ronlari, toza ichimlik suvining yetishmasligi va atrof-muhitning ifloslanishi aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazdi. Ayniqsa tibbiy xizmat yetarli darajada rivojlanmaganligi ijtimoiy muammolarni yanada kuchaytirdi. Ijtimoiy sabablar quyidagilardan iborat. Aholining ijtimoiy himoyasizligi, sog'liqni saqlash tizimining sustligi, majburiy mehnat va migratsiya ekologik xavfli hududlarda yashashga majbur bo'lish.

Orol dengizining qisqarishi bo'yicha aniq ko'rsatkichlar 1960-yillarga qadar Orol dengizining maydoni taxminan 68 ming km suv hajmi 1660 km tashkil etgan. 1980-yillarga kelib dengizga quyiladigan Amudaryo va Sirdaryo suvi deyarli 90 foizga qisqaradi. 1990-yillarga kelib dengiz maydoni ikki barobardan ko'proq kamayadi. Baliqchilik sanoati butunlay yo'q bo'ldi. Bu malumotlardan ko'rinib turibdiki Orol fojiasi tabiiy emas, balki inson omili natijasida yuzaga kelganini aniq ko'rsatadi. Paxta ekiladigan maydon oshib borishi natijasida daryolarning orolga yetib bormasligiga yerlarning sho'rlanishiga sug'oriladigan maydonlarning unumdorligi pasayishiga olib kelgan. Orolbo'yidagi ijtimoiy holat bo'yicha aniq faktlar shuni

ko'rsatkichi ittifoq bo'yicha eng yuqori darajalardan biri bo'lgan. Aholining 80 foizidan ortig'i kamqonlik bilan kasalangan. Toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 50 foizdan past bo'lgan. Orol fojiasini tarixiy ahamiyati Sovet davri iqtisodiy va siyosiy tizimning eng keskin kamchiliklarini ochib berdi.

Xulosa shuki orol fojiasi Sovet davrida olib borilgan noto'g'ri iqtisodiy siyosat, markazlashgan siyosiy boshqaruv va ijtimoiy omillar majmuasining ayanchli natijasida ushbu fojia inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat buzilganda qanday oqibatlar yuzaga kelishini yaqqol ko'rsatib berdi. Orol muammosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, u kelajak avlodlar uchun muhim tarixiy va ekologik saboq bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda orol fojiasi tarixiy saboq sifatida qaralishi lozim. Bu har qanday davlat siyosatida ekologik omillar, suv resurslardan oqilona foydalanish va inson salomatligini ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarurligini ko'rsatadi. Orol fojiasi misolida tabiatga nisbatan masulyatsiz munosabatlarning oqibatlari qayta takrorlanmasligi uchun ushbu fojia har tomonlama o'rganilishi va kelajak avlodlarga chuqur tushuntirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston tarixi; (1917-1991) 210-230 betlar
2. Karimov. I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari. 115-130 betlar.
3. Alimuhamedov. R. Orol dengizi fojiasi va uning oqibatlari. 40-75 betlar
4. Abdullayev. A. Sovet davrida O'zbekiston iqtisodiyoti: 170-190 betlar.
5. Islomov Z. Ekologiya asoslari 85-105 betlar.
6. Rasulov. H. Orol bo'yi ekologik muammolari : 22-48 betlar.
7. Ahmedov. B. Markaziy osiyo tarixi. 310-325 betlar.
8. Xudoyberdiyov . T. XX asr O'zbekiston tarixi . 198-215 betlar.
9. To'raqulov. S. Tabiat va jamiyat munosabatlari. 140-155 betlar.
10. Ilmiy maqolalar to'plami: „Orol muammosi“ 10-60 betlar.